

RASMIY USLUBDAGI MATNLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ulashmurodova Shahina Dilshodovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti, 2401- guruh talabasi

Yo'ldoshev U.R.

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(Phd)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakulteti dekani

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rasmiy uslubdagi matnlarga nimalar kirishi, ular strukturaviy jihatdan qanday tuzilishi va bu uslubdagi matnlarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Aniqlik, tushunarlilik, rasmiylik, betaraflik, stereotipik iboralar va andozalarning qo'llanilishi, maxsus leksika.*

Аннотация. *В данной статье анализируется, что такое тексты формального стиля, как они структурированы, а также уникальные особенности этих текстов стиля.*

Ключевые слова: *ясность, понятность, формальность, нейтральность, использование стереотипных выражений и шаблонов, специальная лексика.*

Annotation. *This article analyzes what formal style texts are, how they are structured, and the unique features of these style texts.*

Keywords: *accuracy, comprehensibility, formality, neutrality, use of stereotypical expressions and patterns, special lexicon*

Rasmiy uslub yozma va og'zaki muloqotning maxsus turi bo'lib, hujjatlarning tuzilishi davat idoralari va tashkilotlar o'rtasidagi yozishmalar, shartnomalar, qonunlar va boshqa rasmiy matnlarni tayyorlashda qo'llaniladi. Ushbu uslub aniq qoidalarga asoslangan bo'lib, har bir element matnning mazmunini ochib berish va rasmiy munosabatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Rasmiy uslubdagi matnlarning asosiy belgilaridan biri andozaviy iboralar va standart jumlar shakllarining qo'llanilishidir. Ushbu iboralar matnning tushunarligini ta'minlab, muloqotni maqsadli va izchil qiladi. "Mazkur qaror asosida...", "O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq..." kabilar stereotipik iboralarga misol bo'la oladi. Bu iboralar hujjatlarning rasmiyligini saqlash, aniq maqsadni belgilash va barcha tomonlar uchun tushunarli formatni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Stereotipik iboralarning yana bir muhim vazifasi vaqtni tejash va hujjatning qonuniy kuchini mustahkamlashdir. Bunday iboralar xalqaro standartlarga mos keladi va tarjimada noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi.

Maxsus latamalar rasmiy matnlarning ajralmas qismidir. Bular hujjat yoki matnning mavzusi, sohasi va maqsadiga qarab tanlanadi. Yuridik matnlarda: “javobgarlik”, “ijro etuvchi organ”, “qonuniy asos”; Iqtisodiy hujjatlarda: “byudjet tasdiqlash”, “moliya rejasi”; Diplomatik yozishmalarda : “elchi vakolati”, “memorandum”, “konvensiya”. Maxsus leksikaing ishlatilishi matnning aniqligini oshiradi va tushunarsizliklarning oldini oladi. Masalan, “konvensiya” so’zi xalqaro hujjatlarda doimiy va aniq ma’noga ega bo’lib, uning boshqa ma’noda talqin qilinishi mumkin emas.

Rasmiy matnlar sub’yektiv fikrlardan, hissiy so’zlardan va shaxsiy munosabatni bildirishdan to’liq xoli bo’ladi.

Misol uchun:

To’g’ri: “Mazkur buyruq 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.”

Noto’g’ri: “Bu buyruq juda kerak edi”

Hissiy neytrallik hujjatning vazifasini aniq belgilash va taraflarning huquqlarini himoya qilish uchun zarur. Bu rasmiy matnlarda taraflar o’rtasida xolislikni ta’minlashga yordam beradi.

Rasmiy uslubning yana bir muhim jihati grammatik qat’iylilik va aniq struktura, ya’ni gaplar sintaksisning qat’iy va izchil tuzilganidir. Ko’pincha passiv konstruksiyalar va murakkab gaplar ishlatiladi. Masalan: “Mazkur shartnoma ikkila taraf tomonidan ham imzolandi.”. Sintaktik qat’iylilik nafaqat matnning aniqligini, balki uning qonuniy kuchini ham oshiradi. Bu, ayniqsa, xalqaro shartnomalar va qonuniy hujjatlar uchun muhimdir.

Rasmiy uslubdagi matnlar 3 qismdan tashkil topadi. Ular kirish qismi, asosiy qism va xulosa qismlari hisoblanadi. Matnning kirish qismida uning asosiy maqsadi va mazmuni qisqacha yoritiladi. Bu qism ko’pincha “Mazkur qaror asosida quyidagilar belgilandi...” yoki “Hujjatning maqsadi quyidagilardan iborat...” kabi iboralar bilan boshlanadi. Kirish qismidagi aniq va qisqa ma’lumot matnni tushinishni osonlashtiradi va o’quvchini asosiy qismga tayyorlaydi. Asosiy qismda hujjatning mazmuni batafsil yoritiladi. Bu qismdan faktlar, dalillar va qarorlar ketma-ketlik asosida taqdim etiladi. “Birinchidan, mazkur qarorning maqsadi...” ; “Ikkinchidan, quyidagi vazifalar belgilanadi...” kabi jumlarlar matnning asosiy qismini yoritib beruvchi iboralardir. Bu qismda ishlatilgan tartib va ketma-ketlik hujjatning ma’nosini to’g’ri anglashda muhim ahamiyatga ega. Matnning yakuniy, ya’ni xulosa qismida esa qaror yoki buyruqning ijrosi haqida ma’lumot beriladi. “Ushbu buyruq e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.”. Bu fraza aynan matnning xulosa qismida foydalaniladigan stereotipik ibora hisoblanadi. Yakuniy qismda matnning ijrochi tomonlariga aniq vazifalar yuklatilishi rasmiy hujjatlarning ijro etilishini kafolatlaydi.

Rasmiy uslubdagi matnlarda lingvistik xususiyatlar ham katta ahamiyatga ega. Ulardan birinchisi, bu passiv gaplar ustunligidir. Passiv konstruksiyalar matnning xolis va rasmiy ko.rinishini ta’minlaydi. Bu xususiyat ayniqsa yuridik va diplomatik yozishmalarda keng qo’llaniladi. Passiv gaplar harakatni bajaruvchidan ko’ra uning natijasini urg’ulaydi. “Majburiyat bajarildi.” ; “Shartnoma tasdiqlandi.” kabilar shular

jumlasidandir. Lingvistik xususiyatlardan yana biri bu ko'plik shaklining qo'shilishi hisoblanadi. Rasmiy uslubda ko'plik shakli hurmat va rasmiylikni ta'minlash uchun ishlatiladi. Ko'plik shakli rasmiy munosabatlarda taraflarning tengligini saqlashga ham yordam beradi. "Sizga murojaat qilamiz." ; "Mazkur hujjat tomonlarning kelishuviga ko'ra tayyorlandi." kabi gaplarda ko'plik shakli ham hurmat ma'nosida, ham tenglik va rasmiylikni ta'minlash maqsadida ishlatilgan.

Rasmiy uslub xalqaro manbalarda ham keng qo'llaniladi. Bu uslb xalqaro hujjatlarda, masalan, BMT rezolyutsiyalari, xalqaro konvensiyalar va davlatlar aro shartnomalarda asosiy rol o'ynaydi. Misol uchun, BMTning 1945-yilda qabul qilingan "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi" rasmiy uslubning yuksak namunalaridandir. Uning har bir bandi aniq va tushinarli iboralardan tashkil topgan bo'lib, huquqiy aniqlikni ta'minlaydi.

Rasmiy uslub davlat boshqaruvi, xalqaro munosabatlar va huquqiy tizimning asosiy vositasi sifatida ahamiyatlidir. U qat'iy qoidalar asosida tuzilishi orqali hujjatlarning aniqligi, qonuniyligi va tushinarliligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, rasmiy uslub tilning boshqa uslublaridan ajralib turuvchi o'ziga xos belgilarni o'z ichiga oladi va global muloqot uchun mos formatni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.R.Axmatova: Til uslublari va ularning o'ziga xosligi. (O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti)
2. X.M.Quvvatov: Yuridik hujjatlar uslubiyati. (Adolat nashriyoti)